

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUN, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TILSHUNOSLIKDA PRETSEDENT NOMLARNING MOHIYATI VA TALQINI

Abdurahmonov Shavkatjon Ashurovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Namangan davlat universiteti,
Namangan, O'zbekiston
Tel:+998 93 116 80 70

Topiljonova Namuna Muydinjon qizi

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Namangan, O'zbekiston
Tel: +998 88 665 06 67

Annotatsiya. Mazkur maqolada pretsedent birliklar va pretsedent nomlarning tilshunoslikdagi mohiyati, ularning lingvokulturologik hamda lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yu.N. Karaulov, D.B. Gudkov, D. Xudoyberganova va N. Ahmadjonovlarning ilmiy qarashlari asosida pretsedent birliklarning nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, pretsedent nomlarning onomastik tizimdagi o'rni, milliy-madaniy axborotni ifodalashdagi roli hamda badiiy matnda yuzaga chiqaradigan assotsiativ va konnotativ ma'nolari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari pretsedent nomlarning milliy madaniyat, tarixiy xotira va badiiy tafakkurni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pretsedent birlik, pretsedent nom, lingvokulturologiya, lingvopoetika, onomastika, badiiy matn, milliy madaniyat, assotsiativ ma'no, konnotatsiya, lingvomadaniy birlik.

THE ESSENCE AND INTERPRETATION OF PRECEDENT NAMES IN LINGUISTICS

Abdurahmonov Shavkatjon Ashurovich

Candidate of Philology, Associate Professor, Namangan State University,
Namangan, Uzbekistan

Topiljonova Namuna Muydinjon qizi

Independent Researcher, Namangan State University,
Namangan, Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the essence of precedent units and precedent names in linguistics, their linguoculturological and linguopoetic characteristics. The study covers the theoretical foundations of precedent units based on the scientific views of Yu.N. Karaulov, D.B. Gudkov, D. Khudoyberganova and N. Ahmadjonov. The role of precedent names in the onomastic system, their role in expressing national-cultural information, and the associative and connotative meanings they evoke in literary texts were also studied. The results of the study show that precedent names are an important linguistic and cultural unit that reflects national culture, historical memory, and artistic thinking.

Keywords: precedent unit, precedent name, linguoculturology, linguopoetics, onomastics, literary text, national culture, associative meaning, connotation, linguistic and cultural unit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n20>

Kirish matni. Til va madaniyatning o'zaro munosabatlarini o'ganuvchi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan biri lingvokulturologiyadir. Lingvokulturologiya til va madaniyatning uzviy bog'liqligini tadqiq etuvchi fan sifatida milliy qadriyatlar, stereotiplar, an'analar, ta'rixiy xotira hamda xalqning dunyoqarashi til birliklarida qanday aks etishini

o'rganadi. Lingvokulturologiya – til orqali madaniyatni ifodalash va madaniyat orqali tilni tushunish jarayonlarini tadqiq qiladi. Mazkur fan tilni nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy axborotni saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya matni. Lingvokulturologik tadqiqotlarda pretsedent birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki pretsedent birliklar muayyan xalqning tarixiy, madaniy, diniy va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy tafakkur va madaniy xotiraning tildagi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Mana shu jihatdan pretsedent birlik lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Pretsedent birliklar tushunchasi rus lingvokulturologiya maktabida vujudga kelgan. 1980-1990-yillardan boshlab bu masala alohida ilmiy yo'nalishga aylangan. Chunonchi, pretsedent birlik-bu til foydalanuvchilari ongida yashovchi, madaniy, tarixiy yoki diniy asosga ega bo'lgan barqaror birligi bo'lib, u tinglovchi yoki o'quvchi tomonidan darhok tanib olinadi va tayyor semantik-assotsiativ ma'no beradi. Pretsedent birlik tushunchasi hozirgi zamon tilshunosligida intertekstual va lingvokulturologik tadqiqotlarning muhim obyektiga aylangan. Ushbu birliklar ma'daniyat, tarix, din, adabiyot, milliy ongda muhim o'rin tutuvchi matn, ibora, shaxs, voqea yoki obrazga asoslangan, til ishtirokchilari tomonidan umumiy tarzda tushunilgan til birliklaridir. Pretsedent birliklar lingvokulturologik nuqtai nazardan madaniy kodlarni uzatish, milliy ong va qadriyatlarni aks etish, nutqda milliy tafakkur va stereotiplarni jonlantirish, o'xshash tajribalarni faollashtiradi. Krasnyx fikricha, pretsedent birliklar lingvokulturologik tizimda milliy madaniyat yodgorligi sifatida xizmat qiladi. [1;B.62.]

“Pretsedent” termini lotin tilidan olingan bo'lib, “oldin sodir bo'lgan, tajriba sifatida xizmat qiluvchi hodisa” degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslikda pretsedent birliklar shaxsning yoki jamoaning ongida mustahkam o'rnashgan, keng tanilgan hamda madaniy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan lisoniy va nolisoniy hodisalar bilan bog'liq birliklar sifatida talqin etiladi.

Pretsedent birlik tushunchasi rus tilshunosligida Y.N.Karaulov tomonidan keng talqin qilingan. Yuriy Nikolayevich Karaulov (1935-2016) – rus tilshunosligi, lingvokulturologiya, matn lingvistikasining yirik vakili. U pretsedent birlik tushunchasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan birinchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning ““Русский язык и языковая личность” (1987) asarida pretsedentlik fenomenining konseptual asoslari berilgan. Olimning fikriga ko'ra, pretsedent birliklar – bu til ishtirokchilarining ongida faol yashovchi va ma'lum matnlar yoki voqealarni eslatib turuvchi til birliklaridir. [2;B.216.]

Yana bir muhim tadqiqotchi olim V.V.Krasnyx pretsedent birliklarni madaniyatlararo kommunikatsiyada kalit birliklar sifatida e'tirof etadi va ularning asosida jamiyatga xos tarixiy-madaniy qadriyatlar mujassam ekanini ta'kidlaydi. [2;B.50-52.] S.G.Ter-Minasova esa pretsedent birliklarni madaniyatlararo aloqalarning muhim elementi deb hisoblaydi. Olimning fikricha, pretsedent birliklar har bir til va millatning o'ziga xos “kultural kod” idir. Bu birlikni til ishtirokchisini ongida faol ishlatiladigan, ramziy va semantik jihatdan boy tarkibli til birliklari sifatida ko'rsatadi. Karaulov ham pretsedent birliklar haqida mukammal ta'rif bergan: “ Pretsedent birliklar – bu madaniyatda muhim o'rin tutgan matnlar, nomlar, vaziyatlar bo'lib, ular til shaxsining idroki va ongida tayyor semantik yetakchi sifatida mavjud”. [3;B.624.]

Karaulov til shaxsini 3 qatlamda ko'rsatadi:

1. Nol daraja – til kompetensiyasi
2. Birinchi daraja – kommunikativ kompetensiya

3. Ikkinchi daraja – pretsedentlik(madaniy xotira)

Shu modelda pretsedent birliklar til shaxsining eng yuqori darajasiga kiradi. Demak, pretsedent birliklar til shaxsning:

- Madaniy dunyoqarashi;
- Milliy xotirasi;
- Estetik idroki aks etadigan tamoyildir.

Karaulov pretsedent birliklar bo'yicha quyidagi yangiliklarni fanga kiritgan:

- Pretsedent birlik tushunchasini aniq lingvistik kategoriya sifatida belgilagan.
 - Uning ichki turlarini (matn, nom, vaziyat, fakt) birinchilardan bo'lib tasniflagan.
 - Pretsedentlikni shaxsning madaniy-kognitiv tajribasi bilan bog'lagan.
 - Til shaxsi modeliga pretsedentni qatlamni kiritgan.
 - Pretsedent birliklarni axborot bloklari – “kodlar” sifatida sharhlagan. D.B.Gudkov esa pretsedent fenomenlar muayyan lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining kognitiv bazasiga kiruvchi va ular tomonidan yaxshi taniladigan birliklar. [2;B.158-165.]
- Hozirgi kunda bu yondashuvlar rus va o'zbek lingvokulturologiyasining asosiy nazariy poydevori hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida pretsedent birliklar masalasi XXI asr boshlaridan boshlab lingvokulturoliya, pragmalingvistika va matn lingvistikasi yo'nalishlari doirasida o'rganila boshlandi. Bu boradagi tadqiqotlarda pretsedent fenomenlarning milliy-madaniy xususiyatlari, ularning badiiy matndagi funksional-semantik imkoniyatlari hamda xalqning tarixiy va madaniy xotirasi bilan bog'liqligi masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbek tilshunosligida pretsedent birliklar ko'pincha lingvokulturema, madaniy kod, intertekstual birlik va assotsiativ birliklar bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Pretsedent birliklarni milliy ongda mustahkam o'rnashgan hamda muayyan madaniy axborotni o'zida mujassamlashtirgan til birliklari sifatida ko'rsatiladi. Bunday birliklar badiiy matnning semantik qatlamini boyitib, muallifning estetik niyatini ifodalashga xizmat qiladi. D. Xudoyberganovanning fikricha, pretsedent birliklarning muhim turlaridan biri bo'lgan pretsedent nomlar tilning onomastik tizimiga mansub birliklar hisoblanadi. Onomastik birliklarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish millatning tarixiy xotirasi, madaniyati, estetik qarashlari va ruhiyati bilan bog'liq jihatlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pretsedent nomlar milliy madaniyatning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi hamda badiiy matnda muallifning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashga xizmat qiladi". [4;B.132.]

Yaqubovanning ta'kidlashicha, pretsedent birliklar lingvomadaniy jamiyat a'zolarining umumiy bilimlar fondiga tayanuvchi va milliy-madaniy axborotni uzatuvchi birliklardir. [5;B.520.]

Pretsedent birliklar shunchaki til unsur bo'lib qolmay, balki madaniy ramz, xalq xotirasi va ijtimoiy identifikatsiyaning asosiy elementlaridan biridir. Ular orqali til ishtirokchilari madaniy tafakkurini bir-biriga uzviy bog'laydi. Chunonchi, Zarifa Xusanova ham pretsedent birlik tushunchasi haqida: "Pretsedent nomlar mashhur matnlar, tarixiy voqealar yoki muayyan vaziyatlar bilan bog'liq bo'lib, ular til egalarining kollektiv xotirasida saqlanadigan hamda ma'lum sifat va xususiyatlarning ramziy ifodasi sifatida nomoyon bo'ladigan onomastik birliklardir. Bunday nomlar nutq jarayonida qo'llanganda o'zining bevosita nominativ ma'nosidan tashqari qo'shimcha madaniy, tarixiy va assotsiativ ma'nolarini ham yuzaga

chiqaradi. Shu jihatdan pretsedent nomlar milliy madaniy kodning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. [6;B.72-84.]

Pretsedent birliklar milliy xarakterning o'ziga xosligini oldindan belgilaydigan va nutq xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan bilim asosining negizini yaratadi. Pretsedent birliklar ijtimoiy ongda belgilar tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli assotsiativ va konnotativ belgilar bilan tavsiflanadi. Hozirgi davrda pretsedent birliklarning maqomi, semantik tabiati va funksional imkoniyatlarini aniqlash masalasi matn lingvistikasi, lingvopoetika, lingvokulturologiya hamda tarjimashunoslikning dolzarb tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. [7;B.16.]

Shunday xulosaga kelish mumkinki, pretsedent birliklar – bu til ishtirokchilarining ongida faol yashaydigan, keng ommaga tanish bo'lgan, milliy va umumiy madaniy qadriyatlarini aks ettiradigan, nutqda va matnda muntazam ishlatiladigan, kognitiv va emotsional jihatdan dolzarb til birliklaridir.

Pretsedent birliklar shunchaki til unsur bo'lib qolmay, balki madaniy ramz, xalq xotirasi va ijtimoiy identifikatsiyaning asosiy elementlaridan biridir. Ular orqali til ishtirokchilari madaniy tafakkurini bir-biriga uzviy bog'laydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Красных В. В. «Когнитивная база и прецедентные феномены в системе других единиц и в коммуникации» Москва, Филология, 1997 — Язык, сознание, коммуникация, jild 1, 1997; С-62–85
2. Караулов Й.Н. Русский язык и языковая личность, 1987. – С. 216.
3. Светлана Г. Тер-Минасова. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: 2000. – С. 624.
4. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2015. – 132 b.
5. <https://openidea.uz/index.php/idea/index> Yaqubova,2023, 519-523-betlar
6. Xusanova Z.N. Pretsedent nomlarning laqabga ko'chishi // O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. – 2025. – №1. – B. 72–84.
7. Ahmadjonov N.Z. Badiiy uslubda qo'llangan pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Farg'ona, 2022. – 16 b.
8. Isanova, Feruza (2024). THE FORMATION OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE FIELD OF LAW IN ENGLISH. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 51 (3). pp. 43-46. ISSN 2181-368X. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2046>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, 26-iyun

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyun.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.